

O‘RXUN-ENASOY BITIKTOSHLARIDA MAKTUB JANRI ELEMENTLARI**Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna***O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası tayanch doktoranti**Samarqand davlat pedagogika instituti**E-mail: dilshodaabdusalomovna@gmail.com**Tel: (+998) 93 991-91-40*

Annotatsiya. Maqolada O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida maktub janri elementlarining ifoda etilishi yoritilgan bo‘lib, bitiktoshlarda maktub janrida qo‘llaniluvchi mumtoz adabiyotimizdagi badiiy san‘atlar bilan hamohang o‘rinlar ham tadqiq etilgan. Bundan tashqari, bitiktoshning janrini belgilash masalasida bir qancha olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘rxun-Enasoy bitiktoshi, maktub janri kompozitsiyasi, bitiktoshda maktub janri kompozitsiyasi elementlari, bitiktoshlarda tashbeh, tazod, istiora, takrir kabi badiiy san‘atlar murojaat, hikoyaviylik va xotirlash, nasihat va ogohlantirish, muallifning qalb kechinmalari, shaxsiy uslub, bitiktosh janri masalasi.

Annotatsion. The article examines the manifestation of epistolary genre elements in the Orkhon–Enisei inscriptions. In particular, it analyzes aspects of the inscriptions that resonate with artistic devices characteristic of classical literature, such as simile, antithesis, metaphor, and repetition. The study also discusses scholarly views concerning the classification of the inscriptions’ genre.

Keywords: Orkhon–Enisei inscriptions, epistolary genre composition, elements of the epistolary genre in inscriptions, simile, antithesis, metaphor, repetition, apostrophe, narrativity and recollection, admonition and warning, author’s inner experiences, individual style, genre issues.

Maktub janri ildizlarini xalq og‘zaki ijodida ko‘rganimizdek, bu janr elementlarini biz qadimiy yodgorlik O‘rxun-Enasoy obidalarida mavjud bitiklarda ham ko‘rib guvohi bo‘lamiz. Maktub janri haqida o‘zbek adabiyotshunosi professor, olim Nasimxon Rahmonovning O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi o‘quv qo‘llanmasida shunday deyiladi: “Noma janri eski o‘zbek tilida “bildirguluk” so‘zi bilan ifodalangan.

¹

O‘rxun-Enasoy obidaları (VII–VIII asr turkiy bitiklari) ko‘proq yodgorlik, tarixiy-epik va nasihat ruhidagi matnlar bo‘lsa-da, ularning ichida maktub janriga xos elementlar ham mavjud. Shuning uchun ham maqolamizda O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarining maktub janriga xos jihatlarni ko‘rib chiqamiz:

¹ Rahmonov N., O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, T.: - 2014-yil, 182-bet.

1. Murojaat qilish. Bu shakl bitiktoshning asosiy xususiyatlaridan bo‘lib, obidalar ko‘pincha **turkiy xalqqa, kelajak avlodlarga**, hatto **ayrim shaxslarga** qaratilgan murojaat shaklida yozilgan. Bu maktublardagi “yozuvchi hamda o‘quvchi” munosabatini eslatadi. Masalan, Bilga hoqon bitigida: “Turk budun, eshit!” – degan yoki Kul Tigin bitiktoshida “Turk o‘g‘uz beklari, ey xalq, eshiting” kabi xalqni jipslashtirishga, xatolari uchun pushaymon bo‘lib, yakdil bo‘lishga chorlovchi murojaatlar mavjud. Kul Tigin bitiktoshida “Turk xalqini to‘plab, davlat tutishingizni bu yerda toshga o‘yib yozdim”, “Nimaiki so‘zim bo‘lsa, mangu toshga yozdim” deya e‘tirof etishi o‘tmishdan saboq beruvchi butun bir turkiy avlodga yozilgan maktubga o‘xshaydi. Yodgorlikda muallif tilidan keltirilgan “Tabg‘ach xoqonidan naqqosh keltirdim, naqshlatdim. Mening nutqimni buzmadim” deya ta‘kidlanishi yodgorlikdagi dalillar ishonchli ekanligidan dalolatdir. Bu esa maktub janridagi ma‘lumot adresat va adresant uchun ham ishonarli bo‘lishi zarurligi tamoyilini eslatadi.

2. Hikoyaviylik va xotirlash. Maktublarda, odatda, yozuvchi o‘z kechinmalari, boshidan o‘tkazgan voqealarini bayon qiladi. O‘rxun bitiklarida ham hoqon va lashkar boshliqlarining yurishlari, kurashlari “xabar berish” uslubida yozilgan. Masalan, Kul Tigin bitiktoshida “To‘rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib to‘rt tarafdagi xalqni butunlay olganlar, butunlay tobe qilganlar. Boshi borning boshini egib, tizzasi borni cho‘kka latganlar. Sharqqa - Qadirqan yishga, g‘arbga - Temir darvozagacha o‘rnashganlar” kabi hikoyaviylik maktub janridagi **batafsil axborot berish** unsurlariga mos tushadi.

3. Nasihat va ogohlantirish. Maktublarda, odatda, nasihat va saboq elementlari ham uchraydi. O‘rxun yozuvlarida ham kelajak avlodlarga ogohlantirishlar beriladi: “Tabg‘ach xalqi so‘zi shirin, kiyimi nafis ekan. Shirin so‘zi, nafis kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. ...Shirin so‘ziga, nafis ipagiga aldanib, ko‘p turk xalqi o‘lding.² Ey turk xalqi o‘lding. ...Ey turk xalqi to‘kis ishonuvchansan, samimiy nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan. O‘shandayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningning so‘zini olmayin, har qayerga ketding, nom-nishonsiz ketding” kabi yoki “beklari, xalqi insofsiz bo‘lgani uchun, tabg‘ach xalqi hiylakor bo‘lgani uchun, firibgar bo‘lgani uchun, og‘a va inini bir-biriga qayragani uchun, begi va xalqini bir-biriga chaqqani uchun turk xalqi ellashgan davlatini qo‘ldan chiqarib yuborgan. Xoqoni qolib turgan xoqonini yo‘qotib yuborgan. Tabg‘ach xalqiga bek bo‘ladigan o‘gil bolasi bilan qul bo‘ldi, suluv qiz bolasi bilan cho‘ri bo‘ldi. ...Turk o‘guz beklari, ey xalq, eshiting! Tepadan osmon bosmagan bo‘lsa, pastda yer yorilmagan bo‘lsa, ey turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi?” degan xitoblar maktub janridagi ogohlantirish, mushohada yuritishga undash kabi unsurlarga hamohangdir.

² To‘xliyev B., Adabiyot majmua. T.: - Cho‘lpon nashriyoti, 2010-yil, 50-bet.

4. Dialogik ohang. Maktub janri ikki kishi o‘rtasidagi muloqot uslubi bo‘lgani bois, bu janrda dialogik nutq va ohang yetakchilik qiladi. Bitiktoshlarda ham bevosita suhbat ohangini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa maktubga xos “dialogik” xususiyatni eslatadi.

5. Qalb kechinmalari. Maktub janrida, albatta, hikoyaviylik, ifoda etishlik bilan birga yozuvchining **ruhiy holati, qalb kechinmalari, samimiyati** ham yoritiladi. Bunday o‘rinlarda hissiy-ekspressiv ta’sir bo‘yog‘i kuchli bo‘ladi. Kul Tigin bitiktoshida keltirilgan ushbu parchada Kul Tiginning og‘asi Bilga xoqonning ruhiy holati aniq bayon etilgan: “Inim Kul Tigin vafot etdi. Ko‘rar ko‘zim ko‘rmayotganday, bilar aqlim bimayotganday bo‘ldi, jonim azobda qoldi. Shunchalik alam tortdimki, ko‘zga yosh kelganda, ko‘ngilga yig‘i kelganda qayta g‘am chekdim, qayta qayg‘urdim”. O‘rxun obidalarida xoqonning o‘z xalqiga nisbatan dardli ohangi, ayrim joylarda shaxsiy alam ham seziladi. Bilga xoqon bu to‘g‘rida batafsil bayonot berib, shunday degan: “Kul Tiginga ziyoratgoh yarattirdim. Ichi-toshiga maxsus naqsh soldirdim. Tosh o‘rnattirdim, ko‘ngildagi so‘zlarimni u toshga yozdim”. Maktub janrida ham maktub yo‘llovchi, odatda, qalbida bor kechinmalarini, orzu-xayollarini, iztiroblarini bayon qiladi. Bitiktoshda ham biz tadqiq qilayotgan janrning qalb kechinmalarni yoritish, kishi ruhiy holatini ma’lum etish bilan bog‘liq motivlarni ko‘ramiz. Demak, bu ta’sirchalik maktub janrining ajralmas qismi ekan, bunday qism bitiktoshda bir nechta o‘rinlarda mavjud.

6. Shaxsiy uslub. Maktub janrida yozuvchi o‘z qalbini ochadi. Unga ko‘ra maktub yo‘llovchi ifodaviylikda yuqori pafosdan, tantanavorlikdan, oddiylikdan, rasmiy uslubdan, jimjimador so‘zlardan yoki aniq dalillardan foydalanishi mumkin. Bu maktub yozuvchisining estetik ehtiyojidan kelib chiqadi. O‘rxun Enasoy bitiglarida maktub janri elementlarini tahlil qilar ekanmiz, bitiktoshlarda muallif nutqi aniq, tushunarli, o‘ziga ishonch ruhi, tantanavorlik ufurgan o‘rinlarni ko‘rishimiz mumkin. Bitiktoshlardagi yana bir o‘ziga xos uslub shuki, unda ta’kid, ogohlantirishlar yetakchilik qiladi.

7. Kompozitsion tarkib. Maktub janri quyidagicha o‘ziga xos kompozitsion tarkibga ega: kirish, ya’ni muqaddima qismi (salomlashish, tanishuv), asosiy qism (xabar, mazmun, nasihat, izoh), yakun, ya’ni xotima (xayrlashish, duo yoki tilak, sana, maktubning yozilish joyi, ba’zan shaxsiy muhr). To‘nyuquq bitiktoshida boshlanma To‘nyuquq o‘zini tanishtirish bilan boshlansa, Kul Tigin bitiktoshida boshlanma to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat bilan boshlanadi. Asosiy qism – voqealarni, ogohlantirishlarni, tafsilotlarni o‘z ichiga oladi. Bitiktoshlar ichida ideal xotimani Kul Tigin yodgorligida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bu quyidagicha ifodalangan: “Kul Tigin qo‘y yilida, o‘n yettinchi kuni vafot etdi. To‘qqizinchi oyning yigirma yettisida azasini o‘tkazdik. Bitiktoshini maymun yilida, yettinchi oyning yigirma yettisida butunlay tugatdik. Kul Tiginning qabr toshiga buncha naqshni Tuyg‘un Eltabar

keltirdi”. Mufasssal keltirilgan ushbu ma’lumotlar maktub janri xotimasida keluvchi muallifning ismi sharifi, maktubning yozilgan sanasiga juda yaqindir.

Shuningdek, biz tadqiqotimiz davomida maktub janrida fikrni dalillash, kuchaytirish uchun qo‘llaniluvchi folklor adabiyotidagi **maqol, matal janrlari, mumtoz adabiyotida mavjud bo‘lgan tashbeh, kinoya, mubolag‘a, tazod, takrir, istiora, ko‘chim** kabi badiiy san’atlardan, **ritorik so‘roq, iqtibos keltirish** kabi badiiy vositalardan foydalanish, ushbu janrda kelgan fikrni yana-da kuchaytiruvchi omil ekanligini ham aytib o‘tmoqchimiz. O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida ham shunday badiiy vositalardan - maqol, tashbeh, kinoya, takror, ritorik so‘roq, xronologik ma’lumot berish kabilarni uchratamiz. Masalan, “oriq buqa va semiz buqani tezagidan bilsa, birov semiz buqa va oriq buqani ajrata olmas emish”, “Yupqa yig‘in tor-mor qilishga oson emish” **maqollari**, To‘nyuquq bitiktoshida keltirilgan quyidagi “Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan, o‘sha ikki kishi bor bo‘lsa, seni, Tabg‘achni o‘ldirajak deyman, shimolda Xitoyni o‘ldirajak deyman, meni, o‘g‘uzni ham o‘ldirajak deyman” jumlasida qo‘llanilgan takrorlar va “ban o‘zum” kabi **takrorlar** yoki “Uchovimiz (tabg‘ach, qirg‘iz, xitoy) yopirilib hujum qilaylik, uni yo‘qotaylik depti. Turgash hoqoni shunday depti: mening xalqim u yerda bo‘ladi. Turk xalqi yana hayajonda depti. O‘g‘uzi yana parokanda depti” kabi **iqtiboslar**, “Dono To‘nyuquqqa - menga aytdi”, “sarig‘ altun”, “urun kumush”, “egri tebi”, “lashkari bo‘riday”, “dushmani qo‘yday”, “qoning suvday oqdi”, “suyaging tog‘day uyuldi” kabi jumlalarda **tashbeh**, “otam xoqon tizzasi borni cho‘kka latgan, boshi borni ta‘zim qildirgan” qiyoslaridagi **ko‘chim**, “Karam-u g‘azabingni ko‘nglingdagiday qil, ...til tutib ma’lumot olib tur, ...dushmanga bostirib qo‘yma” kabi **maslahat**, “Eltarish xoqonga, Turk Bo‘gu xoqonga, Turk Bilga xoqonga xizmat qildim” degan **xronologiya** (bular To‘nyuquq bitiktoshidan)lar bitiktoshlarda maktub janri elementlari borligini yaqqol ko‘rsatadi. Bundan tashqari bitiktoshda “birlashgan xalqni o‘t-suv qilmadim” parchasida “o‘t-suv” birikmasi mumtoz adabiyotdagi **tazod** san‘atini eslatga, bu ifoda yana **istiora** san‘atining go‘zal talqini sifatida yuzaga chiqadi.

Kul Tigin bitiktoshida tarixiy manbalarda ilmiy asoslangan o‘ziga xos **xronologik ma’lumot** quyidagicha izohlanadi: “Inson bolalari ustidan ota-bobom Bo‘min xoqon va Istami xoqon xoqon bo‘lib o‘tirganlar... Yuqorida turk osmoni, turkning muqaddas yeri, suvi shunday debdi: “Turk xalqi yo‘q bo‘lmasin”, deb, “xalq bo‘lsin” deb otam Eltarish xoqonni, onam Elbilga xotunni tangri o‘z martabasida tutib, yuqori ko‘targan ekan”.

Bitiktoshlarda hatto mumtoz adabiyotda mavjud **faxriya** janriga monand o‘rinlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Kul Tigin bitiktoshida shunday jumlar keladiki, bunda biz faxrlanish munosabatiga guvoh bo‘lamiz: “Tangri yorlaqagani uchun, iste‘dodim, baxtim bor uchun, men sizlarga xoqon bo‘ldim. Xoqon bo‘lib,

qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg‘azdim. Qashshoq xalqni boy qildim. Oz xalqni ko‘paytirdim yo bu so‘zim yolg‘onmi?!” Ushbu bitikda biz Kul Tiginning ritorik so‘roqdan foydalangan holda fikrini yanada kuchaytirib dalillaganini ko‘ramiz.

To‘nyuquq bitiktoshida **maktub janrining og‘zaki variantini** quyidagicha ko‘rishimiz mumkin: “Bo‘gu xoqon menga shunday deb aytib yuboribdi. Bosh lashkarboshiga maxfiy gap yuboribdi: “dono To‘nyuquq hushyor va o‘zi biladi. Lashkar bilan yo‘lga chiqmoqchi bo‘lsa, unamang”. U gapni eshitib, qo‘shinni yo‘lga soldim. Va yana “Bizning kuzatuvchilarimiz til tutib keltirdi. Gapi shunday: Yaris dashtida o‘n tuman lashkar yig‘ildi. Bu gapni eshitib, beklar hammasi qaytaylik, pokiza uyat yaxshidir, dedilar”³. Bulardan anglashiladiki, maktub janri o‘sha davrlarda janr sifatida shakllanib ulgurmagan bo‘lsa ham, biroq davlatchilik ishlarida u “**maxfiy gap**”, “**til tutib keltirmoq**” nomlari bilan yuritilgan. Chunki bu hayotiy va siyosiy ehtiyoj edi.

O‘rxun bitiklarining janri haqida olimlar turli fikrlar bildirgan bo‘lsalar-da, maktub janrining o‘ziga xos belgilarni hisobga olsak, O‘rxun bitiklarida aynan maktub janri elementlari (xususan, murojaatlar, xalqqa xitoblar, nasihat ohangi, subyektiv muallif ovozi) mavjudligini ko‘rish mumkin. Obidalar shunchaki yodgorlik emas, balki xalqni ogoh etuvchi, tarixiy saboq beruvchi maktub elementlarini o‘zida ko‘rsata olgan murojaatdir.

Ozarbayjonlik olim S.Sharifovanning maqolasida O‘rxun-Enasoy bitiklarining janr tabiatiga oid turli olimlarning qarashlari sanab o‘tiladi. Masalan, S.Yu.Malov Enasoy bitiklarini “epitafiya” yoki “qabriston poeziyasi” deb atagan. V.Jirmunskiy O‘rxun yodgorliklarini “alohida janr” sifatida baholagan. F.Korsh, A.Abidiy bitiklarni “nasrda yozilgan she‘riy asar (proza v stixax)” deb hisoblagan bo‘lsa, T.Gadjiev Ularni “badiiy-hujjatli qahramonlik eposi” sifatida baholagan. V.Osmanli bitiklarni esa bitiktoshlarni “tosh solnomasi” deb atagan. I.V.Stebleva matnlarni poeziya namunasi deb baholagan va ularni qahramonlik eposi sifatida ta’kidlagan.⁴

Bundan ko‘rinadiki, olimlar orasida bitiktoshlar janri masalasida yagona fikr yo‘q. Ba’zilar ularni poeziya, boshqalar nasr, yana boshqalar aralash janr sifatida tasniflagan.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar ularni ilk turkiy yozma adabiy yodgorliklar sifatida tan oladi. Bitiklarning turkiy xalqlarga mansubligi ilmiy asoslangan bo‘lsa-da, tarixda ba’zi urinishlar ularni boshqa xalqlarga nisbat berishga qaratilgan.

³ To‘xliyev B., Adabiyot majmua. T.: - Cho‘lpon nashriyoti, 2010-yil, 47-bet

⁴ Sharifova, Salida Shammed. Научный диспут о жанровой природе Орхоно-Енисейских письменных памятников // Национальные литературы в контексте культурной интеграции: материалы Международного круглого стола (9 июня 2021 г., г. Казань). Выпуск 3, стр. 297-305.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlaymizki, maktub janriga xos xususiyatlardan biri murojaat bo‘lib, bu shakl O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari orasida ko‘p uchraydi. Kultegin bitiktoshida xalq, aka-uka, farzand avlodlarga murojaatlar, ayniqsa, ko‘p. Masalan: “Ey turk xalqi, eshit!” kabi murojaat shakllari keng tarqalgan. Bilga xoqon bitiktoshida ham turli qatlamlarga qaratilgan murojaatlar bor: xalq, amaldorlar, keyingi avlodlar. “Turk budun, tingla!” (Turk xalqi, tingla!) shaklidagi takroriy murojaatlar talaygina. To‘nyuquq bitiktoshida murojaatlar Kultegin va Bilga Xoqondagi kabi ko‘p emas. U ko‘proq maslahat, hikoya va o‘zini oqlash ohangida yozilgan.

Biz O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarining janr tabiatini o‘rganish, unda maktub janri elementlarini aniqlash jarayonida o‘zbek mumtoz adabiyotida mavjud yuqorida sanab o‘tilgan badiiy san’at vositalarining borligiga, obidalar xalq og‘zaki ijodi bilan ham hamohangligiga guvoh bo‘ldik. Maqolada obidalarda siyosiy ruh yetakchilik qilsa-da, unda maktub janriga xos bo‘lgan ichki kechinmalar ham qator o‘rinlarda mavjudligini misollar orqali ko‘rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyqulov E. Adabiyotshunoslikka kirish. - T. Fan. 2006.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T. Fan. 2007.
3. Rahmonov N., O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, T.: - 2014.
4. Boqijon To‘xliyev, Barno Abdurahmonova. Adabiyot, majmua. -T. Cho‘lpon. 2010.
5. Sharifova, Salida Shammed. Научный диспут о жанровой природе Орхоно-Енисейских письменных памятников // Национальные литературы в контексте культурной интеграции: материалы Международного круглого стола (9 июня 2021 г., г. Казань). Выпуск 3, стр. 297-305.